

### **Dilnozaxon ABDUKARIMOVA**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*Loyiha boshqaruvi yo'nalishi tinglovchisi*

*dilnozaxonim67@gmail.com*

## **ELEKTRON HUKUMAT LOYIHALARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada elektron hukumat loyihalari, uning turlari, asosiy vazifalari hamda elektron hukumat loyihalarining samaradorligi tahlil qilingan. Maqolaga elektron hukumat loyihalaridan biri Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining imkoniyatlari va samaradorligi haqida ma'lumotlar ham kiritildi. Qolaversa, O'zbekistonda elektron hukumat loyihalarini yanada rivojlanadirish bo'yicha takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** *elektron hukumat, davlat xizmatlari, my.gov.uz, samaradorlik, oshkoraliq.*

## **ELECTRONIC GOVERNMENT PROJECTS AND ISSUES OF EVALUATING THEIR EFFECTIVENESS**

**Abstract:** This article analyzes electronic government projects, their types, main functions, and the effectiveness of electronic government initiatives. The article also includes information about one of the electronic government projects, the Unified Portal of Interactive Public Services, focusing on its capabilities and effectiveness. Furthermore, suggestions are provided for further development of electronic government projects in Uzbekistan.

**Keywords:** *e-government, public services, my.gov.uz, effectiveness, transparency.*

## Kirish

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalar asosida elektron hukumat loyihalarining shakllanishi va keng qo‘llanilishi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda tubdan o‘zgarish yasadi desak mubolaga‘ bo‘lmaydi. Elektron hukumat loyihalari orqali davlat organlari bilan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ularning shaffofligini ta‘minlash imkoniyati yaratildi.

Elektron hukumat loyihalari nafaqat davlat va fuqarolar o‘rtasidagi aloqani yaxshilashga, balki resurslarni tejash, korrupsiya xavfini kamaytirish, hamda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni raqamlashtirishga ham xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida ham elektron hukumat tizimini joriy etish va rivojlantirish maqsadida bir qator qonunlar, qarorlar va nizomlar qabul qilindi. Bu hujjatlar davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, davlat xizmatlarini elektron shaklda ko‘rsatish va aholi bilan o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Jumladan, “Elektron hukumat to‘g‘risida” 395-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni 09.12.2015-yil qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonunda elektron hukumatning asosiy prinsiplari, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi prinsipi, «Bir darcha» orqali elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish prinsipi, elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish prinsipi, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish prinsipi, elektron hukumat sohasidagi vakolatli organning

vakolatlari, elektron davlat xizmatlarining turlari va ularga doir talablar keng holatda yoritib berilgan.

**Elektron hukumat** - bu davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir [1]. Ushbu maqolaning maqsadi — elektron hukumat loyihalarining amaliy natijalarini tahlil qilish, ularning jamiyat hayotiga ta'siri va samaradorligini aniqlashdan iboratdir.

### **Adabiyotlar tahlili**

B.Nourhan, E.H.Hamed, va S.Mohamedlar o'z maqolasida elektron hukumat butun dunyoda korrupsiyani jilovlash va hukumat samaradorligini oshirishda muhim ta'sirga ega bo'lib, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun elektron hukumat loyihalarini shaffof, hisobdor muhitda joriy etish muhim hisoblanadi deb aytishgan edi [2]. T.C.Dang, H.V.Van, va D.Le Vanlar esa elektron hukumat raqamli texnologiyalar yordamida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimidagi jarayonlarni soddalashtiradi, keraksiz byurokratik qatlamlarni yo'q qilib, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonida odamlarning aralashuvini kamaytiradi deb fikr bildirgan edilar [3].

Ishengoma and Shaolarning fikrlariga ko'ra, elektron hukumatning afzallikkari shundaki, elektron hukumat butun dunyoning aholisiga ijtimoiy yoki iqtisodiy holati, millati va jinsidan qat'iy nazar, mavjud xizmatlardan keng foydalanish imkoniyatini ochib bergen bo'lib, elektron hukumat loyihalari aholi uchun raqamli xizmatlardan oson foydalanish imkoniyatini, hukumat tomonidan xizmatlar ko'rsatilishida shaffoflikni, ochiqlikni va adolatni ta'minlab, ijtimoiy va iqtisodiy

tavofutlarni bartaraf etishga yordam beradi. Qolaversa, elektron hukumat hisobdorlik va barqarorlikni yanada oshiradi [4].

Ibrahimning fikriga ko‘ra, elektron hukumat loyihalari va jamiyatning o‘zaro aloqasi va bog‘liqligini oshirish maqsadida, elektron hukumat xizmatlariga kirishni osonlashtirish va fuqarolar ishtirokini kengaytirish uchun raqamli savodxonlikni darajasini oshirish talab etiladi. Aynan jamoatchilik ishtiroki elektron hukumatning muvaffaqiyati uchun muhim omildir va jamiyatning turli qatlamlarining elektron hukumat loyihalaridan keng foydalanishi davlat tomonidan aholining yanada ehtiyoj va kutuvlarga to‘liq mos kelishiga intilishiga undaydi [5].

### **Tadqiqot metologiyasi**

Ushbu maqolada sifatli tadqiqot metodidan foydalanildi. Tadqiqot davomida elektron hukumatning asosiy turlari hamda ilgari o‘rganilgan ilmiy maqolalar asosida tahlil olib borildi. Qolaversa, ushbu tadqiqotda aralash tadqiqot metodologiyasi ham qo‘llanildi.

### **Tadqiqot tahlili va natijalari**

Elektron hukumat – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari va davlat amaldorlariga axborot taqdim etish hamda avvaldan shakllangan davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘lib, bunda davlat va fuqaro o‘rtasidagi shaxsiy aloqa minimallashtirilgan bo‘ladi va axborot texnologiyalaridan maksimal darajada foydalaniлади. Dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlarida «Elektron hukumat» milliy tizimini faol tatbiq qilinmoqda. Bu tizim davlat tuzilmalarini boshqarishni, davlat va tadbirkorlar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash orqali biznes-jarayonlarni samarali rivojlantirishni ta‘minlabgina qolmay, fuqarolarga davlat xizmatlarini internet orqali hammabop interaktiv shaklda taqdim etish imkonini ham yaratadi [6].

Elektron hukumat loyihalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta‘minlash, ularning mas‘uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta‘minlashning qo‘srimcha mexanizmlarini yaratish;

ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma‘lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinushi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;

tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

naqd bo‘lmagan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarni amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Elektron hukumatning uch asosiy tizimi ajratiladi:



### **1-rasm. Elektron hukumatning uch asosiy tizimi**

Hukumatdan aholiga xizmatlar (G2C) — bu yo‘nalishda davlat organlari aholiga har xil xizmatlarni elektron shaklda taqdim etadi. Bu xizmatlar turli sohalarni qamrab oladi va asosiy maqsad — fuqarolarga qulaylik yaratish, xizmatlarni tezkor va shaffof yo‘l bilan olishni ta‘minlashdan iboratdir. Bu bilan aholi turmush darajasini oshirish va davlat organlariga ishonchni mustahkamlash mumkin.


Hukumatdan biznesga (G2B) — bu yo‘nalish orqali davlat tadbirkorlik subyektlariga elektron tarzda xizmat ko‘rsatadi. Biznes va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlar raqamlashtirilib, tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratiladi. Bu bilan qog‘ozbozlik va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, davlat va biznes o‘rtasida ochiq, shaffof munosabat o‘rnatish, korrupsiyani oldini olish va biznes uchun xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Hukumatdan hukumatga (G2G) — bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari va idoralari o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashinuvi va hamkorlik raqamlashtiriladi. Bu

bilan davlat boshqaruving samaradorligini oshirish, ortiqcha qog‘ozbozlikni bartaraf etish va ish jarayonlarini optimallashtirish mumkin [7].

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi ko‘plab elektron hukumat loyihalari mavjud bo‘lib, hozirgi kunga qadar Yagona identifikatsiya tizimi (One ID), Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, my.kommunal.uz, www.gov.uz va boshqa bir qator elektron hukumat loyihalari samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali faoliyatiga qarasak, ushbu portal «bir darcha» rejimida faoliyat ko‘rsatadi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining my.gov.uz rasmiy saytida berilgan portal samaradorligi statistikasiga ko‘ra, hozirgi kunga kelib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan 11.5 mln. foydalanuvchi ro‘yxatdan o’tgan bo‘lib, 772 ta turli yo‘nalishlarda xizmatlar ko‘rsatilishi joriy etilgan. Tashriflar soni esa 34 mln.ni tashkil etadi.



**2-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro‘yxatdan o’tgan foydalanuvchilar soni, ko‘rsatilayotgan xizmatlar va tashriflar soni**

*Manba: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining my.gov.uz rasmiy sayti 22.08.2025-yil*

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining imkoniyatlari:**

Elektron hukumat tizimidagi shaxsiy ma'lumotlarni ko'rish va zaruratga ko'ra yangilash

Davlat xizmatlarini olish uchun arizalarni onlayn to'ldirish, holatini kuzatish va natijasini olish

Ko'rsatilgan davlat xizmatlarining sifatini baholash, fikr-mulohazalar qoldirish va takliflar bildirish

Davlat xizmatlari, kommunal va boshqa turdagi to'lovlarini onlayn tarzda amalga oshirish

Shaxsiy hujjatlarni amal qilish muddatini kuzatish, xizmatlar bo'yicha ogohlantirish va SMS xabarnomalarini olish

Fuqaro nomiga rasmiylashtirilgan soliq, ta'qiq, aliment va boshqa jarimalarni tekshirish hamda to'lash

**3-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining imkoniyatlari**

*Manba: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining my.gov.uz rasmiy sayti 22.08.2025-yil*

O'zbekiston Respublikasidagi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali kabi boshqa mavjud elektron hukumat loyihalari ham davlat xizmatlarini tez, qulay va shaffof tarzda taqdim etishda samarali faoliyat yuritmoqda.

**Xulosa**

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, elektron hukumat loyihalarini yanada takomillashtirish va yanada samaraliroq qilish maqsadida avvalo, aholi o'rtasida raqamli savodxonlik darajasini yanada oshirish muhim hisoblanadi.

Chunki, bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda, fuqarolarning davlat xizmatlaridan tezkor, qulay va samarali tarzda foydalanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fuqarolarning elektron hukumat xizmatlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi yoki onlayn xizmatlardan foydalanish ko'nikmasi yetarlicha emasligi natijasida aholi o'rtaida elektron hukumat loyihalaridan foydalanuvchilar soni oshmasligiga va aholining elektron hukumat loyihalaridan zarur holatlarda ham foydalana olmay qolishiga sabab bo'ladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, raqamli xizmatlar qanchalik rivojlanmasin, agar aholi uning imkoniyatlari, foydalanish tartibi va samarasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasa ya'ni, raqamli savodxonlik darajasini oshirish yanada kengroq yo'lga qo'yilmasa bunday elektron hukumat loyihalarining samarasi cheklangan bo'lib qoladi. Chunki, elektron hukumat loyihalari aholini davlat xizmatlaridan foydalanishida va davlat organlari bilan aloqasida ko'prik vazifasini o'taydi. Aholining barcha qatlamlari elektron hukumat loyihalaridan kengroq foydalansa, avvalo aholining elektron hukumat loyihalariga ishonchi oshishiga, davlat organlariga borib murojaat qilish uchun ketadigan transport vositalariga to'laydigan mablag'i va eng qadrli bo'lgan vaqtini tejashiga sabab bo'ladi.

Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida avvalo, elektron hukumat loyihalari haqida aholining xabardorlik darajasini oshirish zarur. Tegishli davlat organlari yanada ko'proq aholi o'rtaida elektron hukumat bo'yicha ma'lumotlar va tushuntirish ishlarini olib borishi kerak. Qolaversa, elektron hukumat loyihalarining samaradorligi, foydalanish qulayligi va qanday qo'llanilishi haqida turli video roliklarni miqdorini yanada ko'paytirish, elektron hukumat tizimga kirishni osonlashtirish va fuqarolarning ariza yuborishini yanada soddalashtirish lozimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. *Elektron hukumat to‘g‘risida O‘RQ-395-coh* (2015). Available at: <https://lex.uz/uz/docs/-2833860> (Accessed: 12 July 2025).
2. Nourhan, B., Hamed, E.H. and Mohamed, S. (2025) ‘Assessing the impact of e-government on control of corruption and government effectiveness: Developed and developing countries’, *Asian Economic and Financial Review*, 15(5), pp. 740–755.
3. Dang, T.C., Van, H.V. and Le Van, D. (2025) ‘E-government and corruption in an emerging country: New perspectives from a spatiotemporal approach’, *International Review of Economics & Finance*, 100, p. 104111.
4. Ishengoma, F. and Shao, D. (2025) ‘A framework for aligning e-government initiatives with the sustainable development goals’, *Journal of Innovative Digital Transformation*, 2(1), pp. 73–89.
5. Ibrahim, A.H.H. (2025) ‘Bridging e-government with digital literacy: a literature’, *Journal of Governance and Regulation/VOLUME*, 14(1). Available at: <https://virtusinterpress.org/IMG/pdf/jgrv14i1siart12.pdf> (Accessed: 22 August 2025).
6. [https://www.gov.uz/oz/uzbmb/activity\\_page/e\\_government](https://www.gov.uz/oz/uzbmb/activity_page/e_government)
7. <https://mustaqiltonalim.uz/courses/21-mavzu-elektron-hukumat/>
8. [https://mitc.gov.uz/oz/activity\\_page/e\\_government](https://mitc.gov.uz/oz/activity_page/e_government)
9. <https://my.gov.uz/uz>
10. <https://lex.uz/ru/>